



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 10 | pp. 54-60 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LIH JARAYONIDA BUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI



Xojiakbar Zaynabidinov
Mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi soliq imtiyozlarini normativ huquqiy hujjatlar kesimida tahlili, soliq imtiyozlari va ulardan samarali foydalanish natijalari, Prezident qarorlari va boshqa normativ hujjatlarga asosan joriy etilgan soliq imtiyozlari holati, uning davlat budjetiga ta'siri hamda uning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: normativ huquqiy hujjatlar, soliq imtiyozlari, kichik biznes, soliq kodeksi, eksport, import, davlat budjeti, foyda solig'i.

Аннотация: В статье анализируются современные налоговые льготы с точки зрения нормативных правовых актов, результаты применения налоговых льгот и их эффективное использование, статус налоговых льгот, введенных на основании прецедентных решений и других нормативных актов, их влияние на государственный бюджет, а также их уникальные положительные и отрицательные стороны.

Ключевые слова: нормативные правовые акты, налоговые льготы, малый бизнес, налоговый кодекс, экспорт, импорт, государственный бюджет, налог на прибыль.

Abstract: In this article, the analysis of today's tax incentives in terms of regulatory legal documents, the results of tax incentives and their effective use, the status of tax incentives introduced based on precedent decisions and other normative documents, their impact on the state budget, as well as their unique positive and negative aspects are highlighted.

Keywords: normative legal documents, tax benefits, small business, tax code, export, import, state budget, profit tax.

KIRISH

Hozirning o'zida Respublikamizda mahsulot ishlab chiqaruvchilar erkin savdo orqali 280 million iste'molchisi bo'lgan mintaqaviy bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, Yevropa Ittifoqining kengaytirilgan preferensiyalar tizimi "GSP+" doirasida O'zbekistondan 6 mingdan ortiq mahsulot turlarini Yevropa bozoriga imtiyozli shartlarda eksport qilish mumkin.

Mavjud transport koridorlarini diversifikatsiya qilish maqsadida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni Transafg'on temir yo'li orqali Janubiy Osiyoga, O'zbekiston – Qirg'iziston – Xitoy temir yo'li orqali Osiyo – Tinch okeani mintaqasiga hamda Janubiy Kavkazni kesib o'tadigan multimodal transport koridori orqali Yevropa

mamlakatlariga yetkazish uchun imkoniyatlar yaratish bo'yicha ham amaliy harakatlar olib borilayotgani hammamizga yaxshi ma'lum.¹

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq tizimining barqarorligi iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning tahlilida turli mamlakatlar tajribasi, nazariy yondashuvlar va yempirik tadqiqotlar asosiy o'rinni yegallaydi. T. Atkinson va J. Stiglitz tomonidan ilgari surilgan samarali va adolatli soliqlash tamoyillari soliq tizimining barqarorligi uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning fikricha, soliq siyosati iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy adolatni ham ta'minlashi kerak. Aynan shu muvozanatga yerishish soliqlarning doimiyligiga va aholining ishonchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston kontekstida bu masalani O. Xidirov va M. Rajabov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda iqtisodiy muvozanat va soliq bazasining kengaytirilishi orqali barqarorlikka yerishish yo'llari o'rganilgan. Ular soliqqa tortish bazasining keng bo'lishi va soliqlarning prognozga asoslanganligi iqtisodiy faollikni pasaytirmasligi kerakligini ta'kidlaydi. Soliq yukining optimal darajada saqlanishi yesa rasmiy sektorni kengaytirish va soliqlardan bo'yin tovlash darajasini pasaytirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, A. Tanzi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar soliqlarning to'lov intizomini oshirishdagi ma'muriy islohotlarning rolini yoritadi. U davlat moliyasini boshqarishda soliq ma'muriyatchiligining mustahkam bo'lishi daromadlarni barqarorlashtirishga xizmat qilishini ko'rsatgan. Tanzi soliq to'lovchilarning xatti-harakatiga ta'sir qiluvchi ishonch omillari, shu jumladan qonunchilikdagi barqarorlik va soliq organlarining shaffofligiga alohida urg'u beradi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) va Jahon banki tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda esa rivojlanayotgan davlatlarda soliq bazasining torligi, ma'muriy salohiyatning etishmasligi va norasmiy iqtisodiyotning yuqori ulushi soliq tizimining beqarorligiga olib kelayotgan asosiy muammolar sifatida ko'rsatiladi. Jumladan, Jahon bankining "Global Economic Prospects" tahlilida O'zbekistonda soliq islohotlari natijasida davlat budjeti tushumlarining YaIMga nisbati barqarorlashayotganiga e'tibor qaratiladi.

Boshqa tomondan, iqtisodiy diversifikatsiya soliq tizimi barqarorligining tashqi omili sifatida Ye. Zolt tomonidan ko'rib chiqilgan. U turli tarmoqlardan tushadigan soliq daromadlarining muvozanatli bo'lishi fiskal barqarorlikni ta'minlashini qayd etadi. Monotarmoqlik yoki xomashyo eksportiga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotlar soliq daromadlarining o'zgaruvchanligiga juda sezuvchan bo'ladi, bu esa budget siyosatini noaniq qiladi.

Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyati doirasida olib borilgan tadqiqotlar, xususan, M. Keen tomonidan ishlab chiqilgan "tax compliance costs" modeli soliqlarni soddalashtirish orqali nafaqat ma'muriy xarajatlarni kamaytirish, balki to'lovchilarning ijobiy xulqini shakllantirish mumkinligini isbotlaydi. Bu esa uzoq muddatda soliq tushumlarini barqarorlashtirishga olib keladi. Umuman olganda, soliq tizimining barqarorligini ta'minlovchi omillar o'zaro bog'liq bo'lib, ularga huquqiy bazaning aniqligi, fiskal siyosatning oldindan aytib bo'ladiganligi, soliq yukining adolatligi, institutsional salohiyat, iqtisodiy faollik darajasi va siyosiy iqlimning barqarorligi kiradi. Bu omillar

¹ <https://kun.uz/news/2023/11/08/>

kompleks tarzda soliq tizimining barqarorligini belgilaydi va har bir mamlakat uchun ularning optimal kombinatsiyasi o'ziga xosdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish har qanday mamlakatning ustuvor yo'nalishlaridan biri xisoblanadi. O'zbekistonda ham erkin bozor tamoyillarini joriy qilish, monopoliyalarni cheklash va tadbirkorlik sub'ektlari uchun teng sharoit yaratish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda.²

Raqobat muhitini rivojlantirishdagi joriy mexanizmlar ko'rib chiqadigan bo'lsak, hozirgi kunda O'zbekistonda raqobatni rivojlantirish maqsadida bir qator mexanizmlar joriy etilgan ya'ni davlat monopoliyalarni cheklash va erkin bozorni ta'minlash maqsadida bir qator xuquqiy normalarni joriy qilgan. Bundan tashqari, ushbu tuzilma bozorda noqonuniy raqobatni aniqlash, yirik xo'jalik sub'ektlarini nazorat qilish va sun'iy to'siqlarni bartaraf etish vazifalarini bajaradi.³

Davlat tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida berilgan ayrim imtiyozlarni qayta ko'rib chiqmoqda, chunki bunday mexanizmlar raqobat muhitini buzishi mumkin, xususiylashtirish jarayonlarining jadallashtirilish orqali yangi tadbirkorlar uchun imkoniyatlar yaratilmoqda.⁴

Bu mexanizmlar ayrim ijobiy o'zgarishlarga olib kelgan bo'lsada, raqobat muhitini to'liq rivojlantirish uchun yetarli emas.⁵

Raqobat muhitini yaxshilashda soliq siyosati muhim o'rin tutadi. Biroq O'zbekistonda soliq ma'murchiligi bilan bog'liq qator muammolar soliq yukining notekis taqsimlanishi ya'ni ayrim yirik korxonalarga berilayotgan soliq imtiyozlari ularning ustunlikka ega bo'lishiga olib kelmoqda.⁶

Bu esa kichik va o'rta biznesning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Xususan, ayrim strategik tarmoqlarda monopol kompaniyalar faoliyat yuritib, ularga nisbatan soliq yuki ancha past bo'lishi mumkin.⁷

Soliq imtiyozlarini normativ huquqiy hujjatlar bo'yicha tahlil qilganimizda 1-jadval ma'lumolari asosida muammoli vaziyatlarni ko'rish mumkin.⁸

Bu jarayonni normativ-huquqiy hujjatlar kesimida tahlil qilganimizda, 1-jadvaldagi holatlar bo'yicha bir qator muammolarga duch kelganimiz. Ushbu jadvalda 2020-2024 yillar davomida turli huquqiy hujjatlar asosida berilgan soliq imtiyozlarining holatlar soni va summasi (mlrd.so'm) aks ettirilgan.⁹

Umumiy ko'rsatkichlarni tahlil qilganimizda, imtiyozlar holatlari soni 2020 yilda 172 835 tani, 2024 yilda 181 664 tani ya'ni 5% o'sishni ko'rsatmoqda, soliq imtiyozlar summasi 2020 yilda 31 065,6 mlrd.so'm, 2024 yilda 72 565,8 mlrd.so'm ya'ni 133% o'sgan. Bu

² <https://kun.uz/news/2023/11/08/>

³ <https://kun.uz/news/2023/11/08/>

⁴ <https://kun.uz/news/2023/11/08/>

⁵ <https://kun.uz/news/2023/11/08/>

⁶ <https://kun.uz/news/2023/11/08/>

⁷ Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁸ Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁹ Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.


ko'rsatkich 2021 yilda kamaygan, 2022 yilda keskin oshgan, 2023 yilda biroz pasayib, 2024 yilda eng yuqori ko'rsatkichga yetgan, yoki u yoki bu hokimiyat organlarining manfaatlarini ko'zlab berilayotgan bir tomonlama imtiyozlar hajmi oshib bormoqda. Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonida budjet-soliq siyosatini isloh qilib ushbu samarasiz va bir tomonlama imtiyozlardan voz kechish davlat budjetga katta mablag'lar tushishiga va qolaversa raqobat muhitini sog'lomlashtirishga olib keladi.¹⁰

1- jadval

Normativ huquqiy hujjatlar kesimida foydalangan soliq imtiyozlari tahlili¹¹, mlrd.so'm

Hudud nomi	Yillar									
	2020		2021		2022		2023		2024	
	Holatlar soni	Summasi	Holatlar soni	Summasi	Holatlar soni	Summasi	Holatlar soni	Summasi	Holatlar soni	Summasi
Jami	172835	31065.6	57981	43899.6	146368	72963.7	152332	69777.9	181664	72565.8
Soliq kodeksi	91769	22995.5	43487	35202.7	94448	66262.4	110329	60766	135335	63254.8
Qonunlar	197	121.4	266	294	677	435.9	480	367.5	652	885.6
PQ lari	24804	2896.4	10113	4015.6	47382	2091.9	10611	4242.7	8036	3435.2
PF lari	49835	1108.7	2635	949	1891	2030.9	29852	2725.6	35741	3794.1
VM qarorlari	5410	3613.6	1009	2761.1	1184	1339.1	396	708.8	1215	410.0
Boshqa hujjatlar	820	329.9	471	677.2	786	803.5	664	967.3	682	786.1

1-jadval ma'lumotlarida soliq kodeksi asosida berilgan imtiyozlar xam tahlil qilingan bo'lib, soliq imtiyozlari xolatlari soni 2020 yilda 91 769 taga, 2024 yilda 135 338 taga ya'ni 47% ga o'sgan. Soliq imtiyozlar summasi 2020 yilda 22 995,5 mlrd.so'mga, 2024 yilda 63 254,8 mlrd.so'mga ya'ni 175% ga o'sgan bo'lib bu bevosita qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan ushbu soliq imtiyozlarini to'liq tahlil qilinmasdan, davlat budjetiga daromadlar tushumi kamayib ketishi xavfi tahlil qilinmasligidadir.¹²



1-rasm. 2024 yilda berilgan soliq imtiyozlarini miyyoriy huquqiy hujjatlar kesmida yuqori ko'rsatkichli tahlili¹³

¹⁰Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹¹Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹²Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹³Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Buning asosiy sabablardan biri soliq kodeksida tadbirkorlik sub'ektlari uchun yengilliklar joriy etilgan va QQS, foyda solig'i va ijtimoiy soliq bo'yicha imtiyozlar kengaytirilgan xamda 2022 yilda qonunchilikdagi o'zgarishlar va isloxotlar ta'siri katta bo'lgan, bu esa o'z navbatida davlat budjetiga sezilararli darajada daromadlar tushumi kamayishiga olib keldi.¹⁴

2- jadval

Normativ huquqiy hujjatlar kesimida foydalangan soliq imtiyozlarining o'sish ko'rsatkichlari tahlili¹⁵, mlrd.so'm

Hudud nomi	Soliq imtiyozlarining o'tgan yillarga nisbatat o'sish ko'rsatkichlari									
	2020 yil		2021 yil		2022 yil		2023 yil		2024 yil	
	Summasi	Jamiga nisbatan	Summasi	Jamiga nisbatan	Summasi	Jamiga nisbatan	Summasi	Jamiga nisbatan	Summasi	Jamiga nisbatan
Jami	31065.6	100	43899.6	100	72963.7	100	69777.9	100	72565.8	100
Soliq kodeksi	22995.5	74	35202.7	80.2	66262.4	90.8	60766	87.1	63254.8	87.2
Qonunlar	121.4	0.4	294	0.7	435.9	0.6	367.5	0.5	885.6	1.2
PQ lari	2896.4	9.3	4015.6	9.1	2091.9	2.9	4242.7	6.1	3435.2	4.7
PF lari	1108.7	3.6	949	2.2	2030.9	2.8	2725.6	3.9	3794.1	5.2
VM qarorlari	3613.6	11.6	2761.1	6.3	1339.1	1.8	708.8	1.0	410.0	0.6
Boshqa hujjatlar	329.9	1.1	677.2	1.5	803.5	1.1	967.3	1.4	786.1	1.1


2-jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak o'tgan 2024 yil davomida soliq imtiyozlari tahlili, soliq kodeksiga asosan jamiga nisbatan 87.2 foizni, qonunlarga asosan jamiga nisbatan 1.2 foizni, Prezedent qarorlariga asosan jamiga nisbatan 4.7 foizni, Prezedent farmonlariga asosan jamiga nisbatan 5.2 foizni, vazirlar maxkamasi qaroriga asosan jamiga nisbatan 0.6 foizni, boshqa normativlarga asosan jamiga nisbatan 1.1 foizni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu tahlillar soliq imtiyozlaridan aksariyat xollarda bir tomonlama ya'ni sub'ektiv munosabatlarda foydalanilayotgani bo'lib, bu esa u yoki bu xokimit organlari (qonunchilik platasi deputatlari, prezedent va b.) manfaatlarini ko'zlab joriy etilayotgan imtiyozlar o'z navbatida xam davlat budjetiga tushadigan mablag'larni asossiz kamayishiga va raqobat muhitiga xam o'z salbiy ta'sirini ko'rsatayotganligini anglatadi.¹⁶

Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq inspeksiyasi ma'murchiligidagi korxonalar tovar aylanmasi tahlili, asosan ularning moliyaviy faoliyati, bozordagi ulushi va soliq majburiyatlarini bajarish holatini baholashga qaratilgan. Bu tahlil tovar aylanmasi dinamikasi, tarkibi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish orqali amalga oshiriladi. Birinchi navbatda, tovar aylanmasi hajmining yillik o'sishi sur'atlari tahlil qilinadi.

¹⁴Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁵Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁶Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



2-rasm. 2020-2024 yillarda berilgan soliq imtiyozlarini me'yoriy huquqiy hujjatlar kesmida yildan yilga o'sish ta'sirining gistogramma tahlili ¹⁷

Ushbu tahlillar natijasida nafaqat yildan yilga soliq imtiyozlari oshib borishi balki buning natijasida davlat budjetiga olinayotgan qarzarlar hajmi ortib borayotganligini anglatadi balki kelajakda davlat budjetiga katta muammo yuzaga kelishiga olib keladi.

Bu jarayonda aylanma summalar, ularning o'tgan yillar bilan solishtirilishi, shuningdek, soliq tushumlariga ta'siri o'rganiladi. Yirik korxonalar tovar aylanmasining oshishi davlat budjetiga tushumlar ko'payishiga sabab bo'lishi mumkin, shu bilar birga, kamayishi soliq tushumlaridagi pasayish xavfini keltirib chiqaradi. Ikkinchidan, Tovar aylanmasining tarkibiy tuzilishi tahlil qilinadi. Unda asosiy maxsulot va xizmat turlari, ichki va tashqi bozordagi sotuvlar miqdori, eksport va import ko'rsatgichlar xisobga olinadi.¹⁸

XULOSALAR

Soliq imtiyozlarini aksariyati soliq kodeksiga asosan joriy etilgan bo'lsada ushbu imtiyozlar bir tomonlama xarakterga egadir.

Prezedent qarori asosida 4.7 foiz va farmonlari asosida 5.2 foiz miqdorida joriy etilgan soliq imtiyozlari 2024 yilda 7.2 trln so'm bo'lib davlat budjetiga katta salbiy ta'sir ko'rsatganligini anglatadi.

Soliq imtiyozlari faqatgina soliq kodeksi orqali va chuqur tahlil qilingan holda joriy etilishi. Natijada:

Asossiz bir tomonlama ya'ni subektiv soliq imtiyozlari oldi olinadi.

Davlat budjetiga 7.2 trln so'm qo'shimcha mablag'lar undirilishiga zamin yaratib chetdan olinadigan xorijiy kreditlarga talabni kamaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. -T.: "Adolat" 2024.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-181-son qarori.

¹⁷Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

¹⁸Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947-sonli Farmoni.
5. Gechert, S., & Heimberger, P. (2022). Do corporate tax cuts boost economic growth?. *European Economic Review*, 147, 104157.
6. Challoumis, C. (2024). Understanding The Cycle Of Money-Its Impact On Tax Policy And Economic Growth. *SSRN Electronic Journal*.
7. Alinaghi, N., & Reed, W. R. (2021). Taxes and economic growth in OECD countries: A meta-analysis. *Public Finance Review*, 49(1), 3-40.
8. Nguyen, H. T., & Darsono, S. N. A. C. (2022). The impacts of tax revenue and investment on the economic growth in Southeast Asian countries. *Journal of Accounting and Investment*, 128-146.
9. Sharif, A., Kocak, S., Khan, H. H. A., Uzuner, G., & Tiwari, S. (2023). Demystifying the links between green technology innovation, economic growth, and environmental tax in ASEAN-6 countries: The dynamic role of green energy and green investment. *Gondwana Research*, 115, 98-106.
10. Arvin, M. B., Pradhan, R. P., & Nair, M. S. (2021). Are there links between institutional quality, government expenditure, tax revenue and economic growth? Evidence from low-income and lower middle-income countries. *Economic analysis and policy*, 70, 468-489.
11. Gurdal, T., Aydin, M., & Inal, V. (2021). The relationship between tax revenue, government expenditure, and economic growth in G7 countries: new evidence from time and frequency domain approaches. *Economic Change and Restructuring*, 54, 305-337.
12. [https://www.google.com/search?q=Rossiya solliq tizimi](https://www.google.com/search?q=Rossiya+solliq+tizimi).
13. [https://www.google.com/search?q=Xorijiy mamlakatlar solliq tizimi](https://www.google.com/search?q=Xorijiy+mamlakatlar+solliq+tizimi).
14. www.солик.уз – O‘zbekiston Respublikasi Solliq qo‘mitasi rasmiy axborot sayti.

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

